

FRANSUZ VA O'ZBEK ASARLARIDA INSONIY QADRIYATLAR

Rustamova Gavhar G'ayrat qizi

*BuxDU Lingvistika: fransuz tili
yo'nalishi 2-kurs magistrant*

" Bizning yuragimiz - bir xazina: uni birdan sarflab qo'ydingizmi, gado bo'lasiz qolasiz"

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek va fransuz insoniy qadriyat jihatlarini tahlil qilishda til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini tasvirlash, o'zbek va fransuz tillaridagi maqollarning mavzu jihatidan bir-biriga o'xshash tomonlarini ko'rib chiqish va ulardagi mentalitet va milliy xarakterning ifodalanishi kabi masalalarga chuqurroq yondashishga harakat qilamiz.*

Kalit so'zlar: *Onore de Balzak, pansion, Alisher Navoiy, Parij, Vilpariz, qiyosiy tahlil, fransuz.*

Bugungi kunda, maqollar ustida qizg'in izlanishlar olib borilayotgan bir paytda, maqollarning turli jihatlarini o'rganish, paremiologiya sohasining asosiy vazifalaridan biridir. Maqollarni qiyosiy jihatlarini o'rganish asnosida ularning lingvokulturologik jihatlariga to'xtalmay ilojimiz yo'q. Bu orqali tadqiq etayotgan tillarimizdagi maqollarning bir-biriga o'xshash va farqli tomonlarini, shu til egasi bo'lmish xalqning o'ziga yarasha madaniyati va o'ziga xos mentalitetini ko'rsatishga harakat qilamiz. Ushbu maqolada o'zbek va fransuz insoniy qadriyat jihatlarini tahlil qilishda til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini tasvirlash, o'zbek va fransuz tillaridagi maqollarning mavzu jihatidan bir-biriga o'xshash tomonlarini ko'rib chiqish va ulardagi mentalitet va milliy xarakterning ifodalanishi kabi masalalarga chuqurroq yondashishga harakat qilamiz. Til har bir millatning madaniyatini, qadriyatlarini va e'tiqodini, umuman xalqning o'ziga xos jihatlarini ifodalashda eng muhim omildir. Tilshunos olimlardan Nida biror xalqning tilini o'rganishda uning madaniyatini ham o'rganish muhim ekanligini aytadi. Uning ta'kidlashicha til va madaniyat bir-biriga bog'liq ravishda rivojlangan o'xshash sistemadir. Umuman, madaniy faktorlar misolida tilshunos Teliya ham ma'lum xalqqa va uning tarixiga tegishli bilimlar, an'ana va qadriyatlar, kundalik odatlar va boshqa madaniy ko'rsatkichlarni insoniyatning fundamental asoslari va ular orqali dunyoni anglashini tushuntirib o'tadi. Shuningdek, uning fikricha, har bir madaniyatning asosida yotuvchi til hech qachon madaniyatdan ayro o'rganilmasligi va insoniyat tildan madaniyatning har bir nuqtasini ifodalashda foydalanishini aytib o'tadi.

Buyuk fransuz yozuvchisi Onore de Balzak ijodi Yevropa tanqidiy realizmi adabiyotining yuqori cho'qqisi hisoblanadi. Adib qalamiga mansub "Inson komediyasi" epopiyasi u yashagan davr burjua tuzumi va jamiyati tarixini o'zida haqqoniy mujassamlashtirgan qomusiy asardir.

Onore de Balzak 1799 yilning 20 mayida Fransiyaning Tur shahrida mansabdor shaxs oilasida tavallud topdi. Yosh Bal'zak o'rta ma'lumotni Parij pansion (yopiq tipdagi maktab-internat – M.X.)ida o'lgach, ota-onasining xohishi bilan huquq maktabiga o'qishga kiradi. Ayni paytda, Sarbonna universitetiga qatnab, adabiyotdan ma'ruzalar tinglaydi, bor talant va iqtidorini badiiy ijodga baxshida etadi. Yozuvchilikka bo'lgan istagi xom xayol emasligini isbotlashga va o'z orzu-umidlarini ro'yobga chiqarishga intilgan Balzak otasidan ikki yilga muhlat so'rab, Parijda qoladi. Bu payt iste'foga chiqqan janob Fransua Balsa (yozuvchining otasi – M.X.) oilasi bilan Parijdan uzoq bo'lmagan Vilparizi shaharchasiga ko'chib ketgan edi.

Deyarli barcha kunlarini muhtojlikda o'tkazgan yosh Balzak, ikki yil davomida XVII asr klassik tragediya janrining ustalari Per Kornel va Jan Rasin ijodiga taqlidan "Kromvel" (1819) nomli she'riy fojiasini yozib tugatadi. Baxtga qarshi yozuvchining bu ilk asari unga shuhrat keltirmaydi, adabiyot anjumanlarida tanqidga uchraydi. Shundan so'ng u bir necha taxalluslarda qator qissa hamda novellalarini e'lon qiladi. Bu asarlar ham yosh adib nomini adabiyot olamiga tanitmaydi. Vaholanki, yozuvchining mazkur asarlari syujetida romantizm adabiyoti ruhi aks etib tursa-da, biroq ulardagi xayoliy voqealar, afsonaviy hodisa va to'qima obrazlar tasviri mazmunga zerikarli tus bergan, kitobxonni zeriktirib qo'yguvchi holatda edi. Xullas, Balzakning reallikdan uzoq bo'lgan bu asarlari ham romantik yozuvchilar Viktor Gyugo, Jorj Sand, Aleksandr Dyuma va Sent-Byov tarafidan keskin tanqid qilinadi. Dastlabki mashqlari sanalgan bu asarlari bahridan o'tgan Balzak keyinchalik "faqat o'z nomim (Balzak-M.X) bilan chiqqan kitoblarimnigina o'zimniki hisoblayman", deb yozadi.

Yozuvchining Balzak taxallusi bilan 1829 yilda chop qilingan "Shuanlar" nomli birinchi romani o'z muallifini adabiyot olamiga tanitdi. Darhaqiqat, Balzak bu asari bilan romantizm oqimidan chekinib, tanqidiy realizm tomon burilgandi. "Shuanlar"da 1799 yili Fransiyaning Breton viloyatida Respublikaga qarshi boshlangan isyonni bostirish bilan bog'liq voqealar real obrazlar vositasida tasvirlangan edi. Yozuvchi romanda mansabdor shaxslar va generallar bilan bir qatorda oddiy xalq vakillarini ham bosh qahramon darajasiga ko'tararkan, ularning o'z vatani Fransiya taqdiriga befarq qolmay, balki eng og'ir damlarda ham unga jon fido aylab kurashganliklarini yuksak mahorat bilan ta'riflaydi.

XIX asr o'ttizinchi yillarining birinchi yarmida Balzak fransuz jamiyatiga mansub turli tabaqalar vakillarining hayotini tasvirlovchi "Gobsek", "Sag'ri terisi tilsimi", "Polkovnik Shaber", "Qishloq vrachi", "Yevgeniya Grande", "Gorio ota" singari qator roman va qissalarini yaratdi. Bu yillar Onore de Balzak ijodining eng gullagan davri bo'lib, u yaratgan yuqoridagi asarlar o'z muallifini tanqidiy realizm adabiyotining shohsupasiga olib chiqqan edi.

1834 yil Bazak yozgan asarlarini birlashtirib, ularga "Inson komediyasi" degan umumiy nom beradi. "Inson komediyasi" uchta asosiy bo'limdan ("Odatlar haqida etyud", "Falsafiy etyud" va "Analitik etyud") iborat bo'lib, ular o'z ichiga 143 nomdagi katta-kichik asarni qamrab olishi lozim edi. Biroq yozuvchi o'zining yigirma yilga yaqin ijodi davomida ulardan 97 tasini yozishga ulguradi.

Buyuk adib o'zining muazzam "Inson komediyasi"ga yozgan so'zboshisida shunday ta'kidlagandi: "Fransuz jamiyati o'zi tarixning yaratuvchisi bo'lib chiqdi, menga esa uning kotibi bo'lish vazifasi nasib etdi. Ehtimol men shuncha tarixchilar tomonidan unutilgan tarix ya'ni xulqlar tarixini yozib chiqishga muyassar bo'larman. Men ko'p bardosh va jasorat yig'ib, nasib bo'lsa, XIX asr Fransiyasi haqidagi kitobimni oxiriga yetkazarman"

Darhaqiqat, Balzak o'z oldiga qo'ygan bu ulkan vazifani aytganidek soz ado eta oldi, o'zi yashagan davr burjua Fransiyasining xulqlar tarixini badiiy syujet va obrazlarda ravshan tasvirlab berdi.

Yozuvchi yaratgan epopeyaning bosh kitobi, bu "Gorio ota" romanidir. Undagi voqealar adibning boshqa asarlarida davom ettirib boriladi. Kitobxon romanda ishtirok etgan Rastinyak, Byanshon, Votren, Nusingen, Gobsek, Tayfer kabi personajlar bilan keyingi asarlarda ham uchrashadi. Masalan, "Gorio ota" romanidagi ikki muhim obraz – Gorio ota bilan Ejen Rastinyak bir-biri bilan bog'langandir. Gorio ota aslida burjua korchalonlari davrasida ko'p yillar nom chiqargan, oxirgi paytga kelib o'z qizlarining baxtli bo'lishlari uchun bor bisotini sarflagan, oqibat bir miri ham puli qolmay, "itdek xor bo'lib o'lgan" zamonasining vakili bo'lsa, Rastinyak kambag'al oiladan chiqqan, endigina kiborlar davrasiga qadam qo'ygan kelgusi burjua jamiyati vakili obrazidir. Yigitning kiborlar davrasidagi dastlabki muvaffaqiyatlari va keksa Gorio otaning halokati Restavratsiya (1815–1830) yillari fransuz jamiyatida Balzak shohidi bo'lgan ijtimoiy axloq qonunlaridan bunyod bo'lgandi. Yozuvchi bu toifa odamlarni romandagi Vikontessa de Bosean xonim tilidan shunday ta'riflaydi: "Qancha sovuqqonlik bilan ish tutsangiz, shuncha martabangiz oshadi. Hech ayamay zarba beravering, ana unda qarshingizda titrab turishadigan bo'lishadi... Hayotda jallod bo'ling (Rastinyakka qarata – M.X), jallod bo'lmasangiz, uning oyboltasi ostida qolasiz". Yosh Ejen Rastinyak ana shu nasihat ketidan, ya'ni "zafar qozonish" yo'lida kurashmoq niyatida ketadi. Gorio ota bo'lsa, "hayosiz naqdina" yo'lida zarbaga uchrab qurbon bo'ladi.

1830 yillarning ikkinchi yarmida yozuvchi "Sezar Birotto", "Ushalmagan orzular", "Dehqonlar", "Kuzina Betta", "Arslik deputat", "Yalangoyoqlarning dabdabasi va qashshoqligi" kabi qator roman, qissa va novellalarini yaratdi. Balzak bu asarlarida ham sudxo'rlik va raqobat, moliyachi nayrangbozlar, mulk uchun, oltin uchun kurashib tubanlik botqog'iga botgan korchalonlar, turli toifadagi odamlar qiyofasini gavdalantirdi. Masalan, burjua ideologiyasi, pulga va oltinga sig'inish odatining XIX asr Fransiyasi shaharlaridan eng olis viloyatlarigacha yetib borib, eng sofdil kishilarni ham baxtsiz etayotganini san'atkor "Yevgeniya Grande" romanida tasvirlar ekan, bunday hayot ustidan chiqargan hukmning obrazlar orqali ifodalashdan tashqari "bu burjua zamoni fojiasidir, unda zahar yo'q, xanjar ishtirok etmaydi, ammo bu fojia unda ishtirok qiluvchi uchun mashhur Atridlar oilasida bo'lib o'tgan barcha dramalardan ham beshafqatroqdir" degan ta'rifni qo'shimcha qiladi.

"Gobsek" qissasida esa oltinga, boylikka hirs qo'ygan sudxo'r Gobsek obrazida xasislikning kishi hayotida qanday maydonga kelishini va uning oqibatlarini tahlil etib

beradi. Tahlil qilibgina qolmay, balki bu hodisani tamomila qoralaydi ham. Buni san'atkor o'z qahramonining ma'naviy qashshoqligini fosh qilish bilan ro'yobga chiqaradi.

Shuningdek, burjua jamiyatida iste'dod egalarining xoru zor bo'lishi yozuvchining "Sag'ri terisi tilsimi" romanidagi olim Rafael, "Ushalmagan orzular" romanidagi Lyusen Shardon, "Z.Markas"dagi faylasuf Markas obrazlari orqali ochib berilgan. Iste'dodsiz, lekin uddaburon kishilar, masalan "Ushalmagan orzular"dagi jurnalist Lusto, "Per Grassu"dagi rassom Per, "Yevgeniya Grande"dagi Sharl har xil yo'llar bilan mansabga ko'tariladi, boylik orttirishadi. Yozuvchi bu asarlarida burjua tuzumi hukmron bo'lgan jamiyatda faqat jinoyat yo'lga kirgan, yirtqichlik qoidalarini mukammal egallagan shaxslarigina farovon hayot kechiradi, degan xulosaga keladi.

1835–1843 yillar davomida Balzak o'zining eng yirik asarlaridan biri "Ushalmagan orzular" romanini yozib tugatadi. Bu roman muallifning oldingi asarlariga qaraganda hajm jihatidan ham, obrazlar dunyosining barkamolligi, voqealar tasvirining kengligi va haqqoniyligi jihatidan ham birmuncha ustun turadi.

Masalan, shu paytgacha mashhur sanalgan "Gorio ota" romanidagi voqealar faqat Parij shahrida sodir bo'lib o'tsa, "Ushalmagan orzular"ning syujeti dastlab chekka viloyatlarning biri Angulemda boshlanib, so'ngra Parijga ko'chadi va nihoyasi yana Angulemda yakunlanadi. "Gorio ota" romanida bosh qahramon Ejen Rastinyakning provintsiyadagi hayoti eslatibgina o'tiladi, xolos. "Ushalmagan orzular"da esa, bosh qahramon Lyusen Shardonning qishloqdagi hayoti ham batafsil yoritilganini kuzatamiz.

Onore de Balzak boylikka hirs qo'ygan burjua sinfining jirkanch qiyofasini, buzuq axloqini to'g'ri tushuna bildi. U o'z asarlarida mehnatkash xalqning yoppasiga noroziligini, ularning turmadagidan battar turmushini haqqoniy ko'rsatib berdi. Balzak inson psixologiyasining chuqur bilimdoni ham edi. Buni biz adibning xususiy mulkchilik psixologiyasini ochib berishdagi mahoratida ham kuzatamiz. Shuning uchun ham "buyuk insonshunos"ning bu san'ati jahon adabiyotida yangi sahifa – tanqidiy realizm sahifasini ochdi. Uning realizmi – o'zi yashagan jamiyatni murosasiz tanqid etgan realizm edi. Balzak o'zining "Inson komediyasi" turkumini yaratish bilan zamonasining hushyor ziyolisi, o'tkir tilli satirik yozuvchisi, bilimdon faylasufi sifatida jahon adabiyotida shuhrat qozondi.

Darhaqiqat, Balzak og'ir hayot va ijod yo'lini bosib o'tdi. Surunkali mehnat va hayotiy qiyinchiliklar tufayli sog'ligini yo'qotgan adib umrining oxirgi (1848–1850) yillarida yangi asar e'lon qilolmadi. Uzoq yillar xat yozishib kelgan mehribon do'sti va sirdoshi polyak ayoli Evelina Ganskayaga uylanish niyatida 1850 yilning martida Ukrainaga keladi. 14 mart kuni Balzak va Ganskayaning nikoh to'yi bo'lib o'tadi. Orzusi ushalgan adib Parijdagi sirdosh do'sti Zyulma Karro xonimga quyidagi xabarni yo'llagan edi: "Menga hayotimning na baxtli bolaligidan, na navqiron yoshligidan to'yib bahra olish nasib etdi. Aftidan umrimning yozi va kuzi totli o'tadigan ko'rinadi". Afsus, bunday baxt Balzakka nasib bo'lmadi. May oyida kasali zo'raygan adib rafiqasi bilan Parijga qaytadi. Parijga kelgach, u to'shakka yotib qoladi. 1850 yilning 18 avgustida buyuk romanist olamdan ko'z yumdi. "Janob Balzak barcha buyuklarning buyugi, ulug' insonlarning ulug'i edi... u yozib qoldirgan asarlar butun bir

kitobni, zamonamizni to'liq va yorqin kartinalarda aks ettiruvchi hayot sahifasini tashkil qiladi", degandi dafn marosimida so'z olgan yozuvchi Viktor Gyugo.

Darvoqe, Balzak yashagan jamiyat uning merosini qadrlamagan bo'lsa-da, adib o'z asarlari bilan o'n to'qqizinchi asrning o'rtalaridayoq butun Yevropaga tanilgan edi. O'tgan asrga kelib, o'zbek kitobxonlari ham yozuvchi asarlarini ona tilida o'qishga muyassar bo'ldilar.

"Yozuvchining o'z oliy hakami bor – bu kelajakdir", degandi Balzakning o'zi. Ulug' san'atkor aytgan bu hikmatning nechog'lik ro'yobga chiqqanini jahon xalqlarining adib ijodiga katta qiziqish bilan qarab kelayotganidan ham bilsak bo'ladi.

Buyuk fransuz adibi, dramaturg Onore de Balzak (1799 - 1850) o'z davrining eng buyuk adiblaridan biri hisoblanadi. Uning buyukligi shunda ediki, u jamiyatdagi muammolarni bor bo'yi bilan, realizm asosida qayta yozdi, butun bir obrazlar tizimini yaratdi, u qahramonlari yordamida jamiyatga "ko'zgu tutdi". Balzak asarlari "Insoniy komediya" nomi ostida birlashtirilgan bo'lib, ushbu epopeyadan 147 asar o'rin olgan. Ushbu asarlar ichida eng mashhur romani - "Gorio ota" hisoblanadi.

"Gorio ota" romani 1834 - yil yozilgan. O'zbek tiliga Sulton Muhammadjonov tomonidan tarjima qilingan.

Asar qahramonlari - Gorio ota, Anastazi, Delfina, Ejen de Rastinyak, Byanshon, Maksim de Trayer va boshqalar.

Asarda Gorio ismli shaxsning fojiali hayoti aks etadi. Adib birgina oila misolida butun fransuz jamiyatining chirkinligini, odamlar pul uchun, obro', mansab uchun hech narsadan qaytmasliklarini, ular uchun oilaning hech qanday ahamiyati yo'q ekanini ko'rsatib bergan.

Gorio ota - sobiq tadbirkor, sarmoyador shaxs. U rafiqasi vafotidan so'ng butun hayotini, bor mehrini, qalb qo'rini ikki qizi - Anastazi va Delfinaga bag'ishlaydi. Ularni malikalardek voyaga yetkazadi. Afsuski, qizlar bemehr chiqadi, ularga faqat otasining pullari kerak edi xolos!

Ejen de Rastinyak - shaharga o'qish maqsadida kelgan, huquqshunoslik fakulteti talabasi. Oddiy oilaning farzandi bo'lgan Ejen shaharda yashash, obro' orttirishning yagona yo'li - kiborlar jamiyatiga yaqinlashish deb hisoblaydi. Shu sabab o'zining uzoq qarindoshi de Bosean xonimdan maslahat oladi. Rastinyak endi Gorio otaning boy badavlat qizlari bilan tanishadi (Gorio otaning qizi ekanini keyinchalik bilib qoladi.) Lekin ko'zini mol dunyo ko'r qilgan, qanday qilib bo'lmasin boyish orzusida bo'lgan yigitcha bu ikkala bemehr qizning harakatlarini ko'rib afsuslanadi. Har ikki qiz ham oilali, farzandlari bor, lekin shunga qaramay, ular turli ballarga borishni, maishat qilishni, qimmatbaho taqinchoqlar taqishni, ma'shuqalari bilan qimor o'ynashni sevadilar. Ma'shuqalaridan ajralib qolmaslik uchun bor budini berishga tayyorlar. Ularning barcha qarzlari sho'rlik Gorio ota to'laydi. O'zi bir xaroba uyda ijarada tursa - da, qizlari uchun eng oxirgi pullarini berishga ham rozi. Muhimi, bir on bo'lsa ham qizlarini ko'rishni istaydi. Lekin qizlari otasidan or qiladi. Ko'cha ko'yda u bilan ko'rishishni yoqtirishmaydi. Ammo, boshlariga tashvish tushsa, darrov otasi yoniga

kelishadi. Mana , qizlarning haqiqiy aksi! Rastinyak bu voqealarni ko'rib eziladi, kasalmand otaga yordam beradi. Vafot etganda esa qizlari o'rniga o'zi dafn marosimi o'tkazadi... Bu nonko'r qizlar hatto otasi bir necha marta chaqirishiga qaramasdan o'limi oldidan bir marta ham ko'rishga kelmaydi, dafn marosimiga esa xizmatkorlarini jo'natishadi ...

Ushbu asar orqali kitobxon XIX asr fransuz jamiyati bilan tanishadi va bu jamiyatning illatlari , nafs , mol dunyo odamlarni ne ko'yga solganligining guvohi bo'ladi. Asarda oilalarning barbod bo'layotgani, ming yillik qadriyatlar so'nayotgani ta'sirli tarzda yoritilgan.

INSON QADRI – NAVOIY IJODINING BOSH MEZONI

Kishilik tarixida o'zining benazir shaxsiyati, umuminsoniy g'oyalarga yo'g'rilgan ijodi bilan o'chmas iz qoldirgan Nizomiddin Mir Alisher Navoiy uchun ham inson sha'ni, qadr-qimmatini asosiy bosh mezonlardan biri hisoblangan. Alisher Navoiy nafaqat o'zining asarlari, ya'ni ma'naviy merosi bilan, balki o'zining davlat boshqaruvidagi va jamiyatdagi mavqei bilan ham insonlarga har tomonlama xizmat qilish uning uchun oliy qadriyat hisoblangan. Bu haqida uning o'z asarlaridan tortib unga zamondosh bo'lgan tarixchilarning asarlarida ham bir qator qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, Alisher Navoiy o'z moliyaviy ishlarining sarhisobi hisoblangan "Vaqfiya" asarida o'z hisobidan kishilar foydalanishi uchun qurilgan masjid, madrasa, shifoxona, ko'priq, rabot singari inshootlarning ro'yxatini keltirgan. Manbalarda aytilishicha, Navoiy qurdirgan "Xalosiya" xonaqohida har kuni mingdan ortiq faqir miskinlar ziyofat qilingan, kiyim-bosh ulashilgan. E'tiborli jihati shuki, Alisher Navoiy ta'sis qilgan madrasalardagi o'qish-o'qitish tizimining ba'zi o'ziga xos jihatlari, olimlar va talabarga to'lanadigan nafaqa va maoshlar haqida uning "Vaqfiya" asarida ma'lumot berilgan. Unda aytilishicha, madrasadagi har bir dars halqasi (potok)da o'n bittadan tolibi ilm tahsil olgan, ular o'zlashtirishlariga qarab uch tabaqaga – a'lo, vasat (o'rta) va adno (quyi)ga bo'lingan va shu mezon asosida ularga nafaqa (stipendiya) tayinlangan. Bu ayni vaqtdagi universitet tizimiga juda o'xshaydi.

Tarixchi Xondamirning ma'lumot berishicha, Hirot shahrining o'zida bevosita Navoiyning tashabbusi va homiyligi bilan "Ixlosiya" va "Nizomiya", tibbiy ilmlar berishga ixtisoslashgan "Shifoiya" madrasalari, "Xalosiya" xonaqohi, bundan tashqari Marv shahridagi "Xusraviya" madrasalarining ta'sis etilgani buning misolidir. Xondamirning yana alohida e'tirof etishicha, "Ixlosiya" madrasasi va "Xalosiya" xonaqohida dunyoning turli mamlakatlari va burchaklaridan bir necha ming talaba kelib, qisqa vaqt ichida o'z bilimlarini takomillashtirishga muvaffaq bo'lganlar.

Alisher Navoiy o'z madrasalarida ustoz mudarrisning ham moddiy ta'minotni o'ylamay tinch va osoyishta ilm, ijod bilash shug'ullanish, talabalarga saboq berishlari uchun yetarli sharoit yaratishga jiddiy e'tibor qaratgan. Hatto shu muallifning guvohlik berishicha, Navoiy madrasasida dars beruvchi Mir Attoullloh ismli olim madrasa yaqinidan uy qurish uchun yer olish taraddudiga tushib, bir muammoga duch kelganida shoir hech o'ylab o'tirmay o'zi uchun qurilgan tayyor uyni olimga tortiq qilib yuboradi. Insonlarga, ayniqsa ilm ahliga ko'rsatilgan bu kabi g'amxo'rlik hamma zamonlar uchun tahsinga sazovordir.

Alisher Navoiy ma'naviy merosi – badiiy ijodining ham bosh o'q ildizi inson va uning qadrini ulug'lashdir. Navoiy ijodida inson masalasi u mansub bo'lgan musulmon mintaqasi falsafiy qarashlari bilan uzviy holda bog'liq holda talqin etilgan. Navoiyning e'tiqodiga ko'ra inson borliqdagi eng sharafli, o'xshashi topilmaydigan mavjudot, hatto borliqlarning yaratilishidan maqsad ham insondir, u shunchaki yaratilib qo'ya qolinmagan – uning ko'ngli irfon – ma'rifatning xazinasini:

Ofarinishdin qilib inson g'araz,
Oni aylab xalq ichinda bezavaz.
Ko'nglin oning maxzani irfon qilib,
Ul tilism ichra o'zin pinhon qilib.

Bas shunday ekan, u har qancha sharaflanishga loyiq. Inson o'zining bu qadr-qimatini iymon, irfon va ilm orqali anglab yetishi mumkin. O'zining nima uchun yaratilganini, bu olamga nima vazifa bilan yuborilganini bilmagan, johil bo'lib yashab o'tish insonning eng katta fojeasidir, deydi Hazrat Navoiy:

Ey Navoiy, jahl ila o'lmak qatiq ishdur, vale
Chun kamoli ma'rifat kasb o'ldi ne nuqson o'lum.

Demak, o'zining ilohiy qadrini ma'rifat orqali anglagan inson uchun o'lim bilan hayot tugamaydi, balki uning umri boqiydir. Shunday bo'lgach, insonlarga har jihatdan xizmat qilish, ularga foyda yetkazish ham sharafli ishdur, deydi shoir. Uning fikricha, odamlarga biror xizmati, yaxshiligi bilan foyda yetkazgan odam bu yaxshilikni avvalo o'ziga qilgan hisoblanadi:

Naf'ing agar xalqqa beshak durur,
Bilki bu naf' o'zungga ko'prak durur.

Alisher Navoiy odamlarning yaxshirog'i kim, degan savolni qo'yadida, bunga shunday javob qaytaradi:

Xalq aro yaxshiroq, deding, kimdur?
Eshitib, ayla shubha raf' andin,
Yaxshiroq bil ani ulus aro kim,
Yetsa ko'prak ulusqa naf' andin.

Ya'ni, odamlarning yaxshirog'i, xalqqa ko'proq foydasi tegadiganidir!

Aksincha, so'ziyu fe'li bilan odamlarga zarari tegadigan kishilarni Alisher Navoiy juda ham tahdidli, keskin so'zlar bilan ogohlantiradi – odamlardan zulm, aldov va tovlamachilik bilan tortib olingan bir siniq igna bo'lsa ham, bir kuni olmos tig'li xanjar bo'lib zulmkorning o'ziga qaytishini, mazlum uning gunohini kechirmasa, jahannam otashida kuyishini, kimgaki bir tikan bilan nohaq sitez – tahdid ko'rsatgan bo'lsa, bu tikan o'ziga yuzta o'tkir tig' bo'lib qaytishini va kimgadir bir ipchalik zarar yetkazgan bo'lsa, bu ip bir kun uni ilondek halok qilishini tushuntiradi:

Garchi sinuq igna haqunnosdur,
Bag'ring aro xanjari olmosdur.
Qilmasa mazlum gunohing bihil,

Do'zax arodur vataning muttasil.
Afvin aning tutmasang ummid sen,
Bilki tomug' o'tida jovid sen.
Kimga tikan birla qilibsen sitez.
Urg'usidur ko'ksungga yuz tig'i tez.
Kimki bo'lur bir shararing fosh anga,
Do'zax o'ti bo'lg'usi podosh anga.
Kimgaki bir rishta yeturdung ziyon,
Qatlinga ul rishtani bilgil yilon.

Shoirning bu misralarini o'qib, qalban anglagan har qanday inson o'zi singari biror odamga zarracha ziyon-zarar yetkazishiga botina olmasligi shubhasizdir. Chunki, Navoiy bu gaplarni shunchaki o'zidan to'qib ijod qilmagan, uning asarlarini erinmasdan, maxsus tayyorgarlik bilan o'qib o'rgangan inson buni tushunadi. Navoiy uchun haqiqiy musulmon kim? U bu savolga boshqa musulmonlar qo'li-yu tilidan salomat bo'lgan kishi, ya'ni qo'li va tili bilan birovga ozor bermaydigan odamdir deb javob beradi:

Kim musulmonlig' aylasa da'vo
Chin emas gar fido qilur jonlar.
Ul musulmondururki, solimdur.
Tiliyu ilgidin musulmonlar.

Bu muxtasar tahlillardan xulosa shuki, Alisher Navoiy o'zining ongli hayotini inson manfaati, dardi bilan yashab o'tkazdi. U insonni faqatgina moddiy emas, balki ma'naviy jihatdan ham qadrlashga umrini bag'ishladi. Uning asarlaridagi yaxshi insonlar nomiga aytilgan maqtovlarni uning o'ziga nisbatan ham bemalol qo'llash mumkindir. Uning bu kabi qarashlarini o'zida umumlashtirgan quyidagi misralari esa insonlarga manfaat etkazishning bosh shiorlaridan biri bo'lib qolaveradi:

Odami ersang demagil odami,
Oniki yo'q xalq g'amidin g'ami!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Fransuzcha-o'zbekcha-ruscha proverbial frazeologik lug'at.2012
2. .Ziyonet.com
3. Stylistique du francais moderne. 2004. Z.Abdushukurova
- 4 . Usmanova, S. (2022). Comparative analysis of landscape terms in Uzbek and English and usage of terms. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 14, 1-3.
- 5.Usmanova, S. (2022). An analysis of" assimilation" of landscape terms. Eurasian Scientific Herald, 14, 32-36.

6. Усмонова, Ш. (2021). МЕДИАДИСКУРСДА ЭКСПРЕССИВЛИК ТЕНДЕНЦИЯСИ. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 4(2).

7. Shaxnoza, U. (2022). Comparative Study of Cosmonims (Sun, Moon...) In Uzbek and English. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 7, 72-75.

8. Shaxnoza, U. (2022). BASICS OF COMPARATIVE STUDY OF COSMONIMS (SUN, MOON...) IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES. British Journal of Global Ecology and Sustainable Development, 2, 25-28.

9. Уринова, Ф. У., & Эркинова, Ш. Ё. (2013). Значение инновационной индивидуальной работы в повышении эффективности самостоятельной учебной деятельности студентов. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, (12-2), 293-295.

10. Urinova, F. A., & Usmonova, S. Y. Q. (2019). IN CONTINUOUS EDUCATION SYSTEM HUMANISTIC CHARACTERISTICS OF PARTNERSHIP PEDOGOGY. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(12), 317-322.